
TOSHLOQ TUMANIDA 9-, 10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI ISSIQLIK TIZIMI JORIY TA'MIRLANDI.

Ushbu sa'y-harakatlar natijasida tumanning eng olis qishloqlarida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'liq issiqlik tizimi bilan ta'minlandi. Hozirda bolajonlar uchun barcha sharoitlarga ega, issiqxonalarda guruhlar faoliyatini boshladi.

Arabmazor MFY hududidagi 9-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 330 nafar tarbiyalanuvchi ta'lim tarbiya olmoqda. Yaqinda mahalliy byudjet hisobidan 28 mln. so'm mablag' issiqlik tizimini joriy ta'mirlash uchun ajratildi.

Qurilish- montaj ishlari "Invest Koordinator" hususiy korxonasi tomonidan tez va sifatli qilib bitkazildi.

Besarang MFYdagi 10-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining issiqlik tizimini joriy ta'mirlash uchun ham 83 mln. so'm mablag' ajratilib, hozirda ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilgan.

Ushbu muassasalar bugungi kunda to'liq o'z faoliyatini yuritmoqda. Bolajonlarning ta'lim tarbiya olishlari uchun yetarli sharoitlar hamda qulayliklar yaratib berilgan.

2022-12-13 13:09:48